

**MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARINI MODULLI
O'QITISH TEXNALOGIYALARI ASOSIDA KASBIY KOMPETENTLIGNI
TAKOMILLASHTIRISH**

Norboyeva Nazokat Xudoyberdiyevna
Jizax viloyati Zarbdor tumani
11-son DMTT direktor o'rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini modulli o'qitish texnologiyalari asosida kasbiy kompetentligini takomillashtirish masalalari xususida ma'lumotlar o'rin olgan. Bundan tashqari modulli ta'lim texnologiyasi, kasbiy kompetentsiyaning mazmuni ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: modulli ta'lim, kasbiy kompetentsiya, mehnat bozori, ta'lim. Maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, metod, texnologiya.

Zamonaviy ta'limning o'ziga xosligi jamiyatda kechayotgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarga muvofiq ravishda pedagogik faoliyatda yangi shakl, metod va vositalarning qo'llanilishi bilan tavsiflanadi. O'quv va tarbiya jarayonini yangi shakllarda tashkil etish, samarali metod va ta'sirchan vositalarni tanlash bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishni taqozo etadi.

R.X.Djurayev “kompetentlik” hamda “kompetentsiya” tushunchalarini nazariy jihatdan yoritib bergan. Chunonchi, “kompetentsiya” atamasi “o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladigan” qobiliyat ekanligi e'tirof etilgan bo'lsa, kompetentlik tushunchasi “shaxsning doimo o'sib boruvchi tasnifi bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlarini va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari”¹ deya ko'rsatilgan.

¹ Kasb ta'limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi / Mas'ul muharr. R.X.Djurayev. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012. – 80 b.

Muallif kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib, qo‘llashi, to‘g‘ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur deb hisoblaydi. R.X.Tugushev kompetensiya hamda kompetentlikni mutaxassisning kasbiy mahoratga erishishning eng muhim omillari sifatida ko‘radi. Unga ko‘ra, kompetensiya shaxsning kasbiy jihatdan yuksalishi sari qo‘yilgan qadamlari bo‘lib, ularning davomiyligi mutaxassis tomonidan kasbiy mahoratga erishilishini ta‘minlaydi.

Shundan kelib chiqqan holda R.X.Tugeshev kompetensiya egasi deganda o‘z ishining ustasi bo‘lgan mutaxassislarni tushunadi. Binobarin, ular mutaxassis sifatida ishni samarali tashkil etadi, kasbiy faoliyatiga aloqador muammolarni yetarlicha tushunadi, ularni hal qilishda o‘z oldiga aniq vazifalarni qo‘ya oladi, shuningdek, mavjud muammolarga yechim topadi²

“Mehnat bozori tushunchalari glossariysi (o‘quv dasturlari va o‘quv rejalari standartlarini ishlab chiqish)”da kompetensiyalarning quyidagi to‘rtta modeli ajratib ko‘rsatilgan: a) shaxs sifatlarini belgilovchi ko‘rsatgichlarga asoslangan kompetensiya; b) bajariladigan faoliyat va vazifalarga asoslangan kompetensiya; v) ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishga asoslangan kompetensiya; g) faoliyat natijalarini boshqarishga asoslangan kompetensiya³

Fikrimizga ko‘ra, bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tarbiyachilari kasbiy kompetentligini rivojlantirish va baholashda bevosita yuqorida bayon etilgan kompetensiya modellarini inobatga olish taqozo etiladi. Binobarin, bo‘lajak rahbarning ta‘lim sifati, samaradorligini ta‘minlashga qo‘shayotgan hissasi, barkamol avlodni tarbiyalashdagi ishtiroki darajasini aynan uning shaxs sifatleri, u tomonidan bajariladigan faoliyat natijasi, vazifalarning ijtimoiy ahamiyati bilan belgilanadi.

Ma‘lumki, modulli o‘qitishning mohiyati shu bilan izohlanadiki, unga ko‘ra, ta‘lim oluvchi o‘ziga taqdim etilgan individual o‘quv dasturi asosida mustaqil tayyorgarlik ko‘radi. Bu o‘quv dasturini bajarish uchun harakatlar rejasi, axborotlar

² Тугушев Р.Х. К вопросу системной психодиагностики психологической компетентности субъектов профессиональной деятельности [http://www. Psycheya.ru/lib/st/tug-/htm/fr](http://www.Psycheya.ru/lib/st/tug-/htm/fr).

³ Глоссарий терминов рынка труда, разработки стандартов образовательных программ и учебных планов. – М.: Европейский фонд образования (ЕФО), 2007. – С. 63

majmuasi, o‘qitish natijalariga erishish bo‘yicha aniq metodik tavsiyanomalar bo‘lishi zarur. Modulli o‘qitishning asosiy talablari jumlasiga quyidagilar kiradi:

— har bir modulning mazmuniga barcha materialni o‘zlashtirib olish bo‘yicha maqsad belgilashni;

— modul bir va bir necha didaktik maqsadga erishishni ta‘minlashga qaratilishi;

— modullar mazmuni mustaqil fikrlash, mantiqiy o‘ylash va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

— kasbiy-ijodiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulning o‘quv materiali mazmuni muammoli tarzda berilishiga erishish shular jumlasidandir. Modulli o‘qitishda ta‘lim oluvchilarning bilim, malaka, ko‘nikmasi qat‘iy ravishda nazoratning reyting tizimida baholanishini zaruriyat qilib qo‘yadi. Har bir modul bo‘yicha tayyorlanadigan o‘quv materiallari o‘z ichiga o‘qish davrini to‘liq qamrab olgan modulli dastur, har bir modul bo‘yicha nazariy materiallar (ma‘ruza), o‘quv-uslubiy tarqatma materiallar, har bir modul bo‘yicha individual topshiriqlar, o‘quv ilmiy adabiyotlar ro‘yxati, har bir modul bo‘yicha mustaqil ishlar uchun topshiriqlar va har bir modul bo‘yicha nazorat topshiriqlarini qamrab oladi⁴

Xozirgi zamon ta‘limining eng muhim muammosi-maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va ta‘lim sifatini yanada takomillashtirish hisoblanadi. Biz pedagoglarning mahoratini oshirishda nimalar to‘siq bo‘lyapti va kamchilik va muammolar qanday ekanligini tarbiyachilar o‘rtasida so‘rovnoma usuli va xorij tajribasi orqali o‘rgandik. Yuqoridagi natijalarimizdan shuni ko‘rishimiz mumkinki, pedagogik mahorat integratsiyalashgan jarayondir. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar maktabgacha ta‘limning davlat standartlarini amalga oshirishga qaratilgan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyada prinsipial muhim jihat - bu bolaning tarbiya va ta‘lim jarayonida tutgan o‘rni va kattalarning bolaga bo‘lgan munosabatidir. Voyaga yetgan kishi, bolalar bilan muloqot qilishda: “Uning yonida emas, uning ustida emas, balki birga!” Degan pozitsiyaga amal qilishi lozim. Uning maqsadi bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga hissa qo‘shish hisoblanadi. Yaxshi natijalarga erishish uchun pedagog kuchli va kuchsiz tomonlarini doimiy ravishda o‘rganib borishi kerak, asta-sekin nafaqat ichki, balki shaxsiy, rivojlanishi ham shakllanadigan ichki yadroni shakllantirishi lozim.

⁴ Rashidov X., Xabib X. va boshqalar. Kasbiy pedagogika. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T., 2007. – B. 15.

Tarbiyachi kasbining o‘ziga xos xususiyatlari bor: u bola bilan ishlaydi, demak u o‘zini kuchli ishlaydigan vositadir. Va ushbu vosita qanchalik mukammal bo‘lsa, professional natija shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi.

O‘qituvchilarning kasbiy sifatleri

- Bolalarga qiziqish va muhabbat, o‘qitishga bag‘ishlash
- Mehnatsevarlik, halollik, odoblilik
- Hissiylik, nekbinlik
- Nutqning ekspressivligi, pedagogik taktika
- Ijodiy shaxsiyat
- Tashkiliy ko‘nikmalar
- Hazil tuyg‘usi
- Qattiqqo‘llik, intizom va boshqalar.

Har qanday inson qayerda ishlamasin, har qanday ish muayyan ko‘nikmalarni rivojlantirishni talab qiladi. Pedagog uchun eng muhim mahorat bu o‘z-o‘zini o‘qitishdir. Bu ayniqsa tarbiyachi uchun juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. R. Suleymanova Kasbiy kompetentlikni shakllantirish. Психологик тренинг асослари фан, toplamlar va ular ustida amallar, 2 5341812802136840895/<https://azkurs.org/kasbiy-kompetentlikni-shakllantirish.html>
2. Rashidov X., Xabib X. va boshqalar. Kasbiy pedagogika. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T., 2007. – B. 15
3. Тугушев Р.Х. К вопросу системной психодиагностики психологической компетентности субъектов профессиональной деятельности [http://www. Psycheya.ru/lib/st/tug-/htm/fr](http://www.Psycheya.ru/lib/st/tug-/htm/fr).
4. Глоссарий терминов рынка труда, разработки стандартов образовательных программ и учебных планов. – М.: Европейский фонд образования (ЕФО), 2007. – С. 63